

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

QO‘LYOZMA HUQUQIDA

UDK 658.01:338.45:67/68

MAXMUDOVA NODIRAXON JUMABOY QIZI

**YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH
RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH
("ASTERA-TEXTILE" MCHJ MISOLIDA)**

5A230201 – "Menejment " (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: dots. Xodjamurotova G.Y.

Toshkent – 2019


Magistrlik dissertatsiya ishi yengil sanoat korxonalariga ta'sir qiluvchi risklarni o'rganish, tahlil qilish va nazorat qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot asosida muallif alohida korxona misolida yengil sanoat risklarini tasniflagan va tahlil qilgan. Yakuniy bo'limda yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish risklarini boshqarish va kamaytirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Master's thesis is dedicated to study, analysis and control of risks affecting light industry. Based on the research, the author classed and analyzed the light industry risks in a separate enterprise case. In the final part, the light industry enterprises have developed practical proposals and recommendations for managing and reducing production risks.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Menejment" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

3 - sonli bayonnoma "18" mai 2019 y.

Kafedra mudiri N.Q.Yo'ldoshev


Imzo sana

Ilmiy rahbar: G.Y.Xodjamuratova


Imzo sana

Taqrizchi: D.T.Yusupova


Imzo sana

Magistrant: N.J.Maxmudova


Imzo sana

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I bob. SANOAT KORXONALARI FAOLIYATIGA TA’SIR QILUVCHI RISKLAR VA ULARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Risk tushunchasi va uning turlari.....	8
1.2. Korxona faoliyatiga ta’sir qiluvchi risklarning tasniflanishi.....	17
1.3. Riskni boshqarish texnologiyasi va ishlab chiqarish risklarini boshqarish jarayoni.....	29
I bob bo’yicha xulosa.....	37
II bob. “ASTERA-TEXTILE” MCHJDA RISKNI BOSHQARISH JARAYONI VA TAHLILI	
2.1. “ASTERA-TEXTILE” MCHJ faoliyati umumiy tavsifi.....	39
2.2. “ASTERA-TEXTILE” MCHJda risklarni boshqarish tahlili	45
2.3. “ASTERA-TEXTILE” MCHJda risklarni moliyaviy-iqtisodiy ko’rsatkichlar yordamida baholash.....	53
II bob bo’yicha xulosa.....	61
III bob. YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RISKNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH	
3.1. “ASTERA-TEXTILE” MCHJga ta’sir qilayotgan ishlab chiqarish risklarini kamaytirish va barataraf etish yo’nalishlari....	63
3.2. “ASTERA-TEXTILE” MCHJda riskni boshqarish tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirish.....	69
III bob bo’yicha xulosa.....	77
XULOSA.....	78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	
ILOVALAR	

Kirish

Dissertatsiya mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Iqtisodiyotda shunday tushuncha mavjudki, iqtisodiyot mavjud bo'lmasidan oldin bu tushuncha amalda bo'lgan. Ammo e'tibor qaratilmagan bu tushuncha, hali hanuz ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu tushuncha – riskdir!

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitining mavjudligi, iqtisodiy barqarorlikni saqlash maqsadidagi harakatlar risk va uni boshqarish muammolariga katta ahamiyat berishga majbur qiladi. Hozirda tadbirkorlar iste'molchilardan bir qadam oldinda bo'lishi zarur, chunki hozirgi zamonda iste'molchilarni talabi doimo o'zgarib turadi, shuning uchun ham tadbirkor bozorda o'z o'rnini yo'qotmasligi uchun ham mazmunan asoslangan riskka borishi zarur. Zero, risk foydani maksimallashtirish shartidir. Biroq tadbirkor mahsuloti ertaga bozorda yashab keta oladimi, yo'qmi buni bilishi va ertangi kunni ko'ra olishi kerak.

Mamlakatimiz iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirib, har tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishiga qaramasdan, o'tgan yilda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda pasayish kuzatilgan. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri YaIM 2017-yilda 105.3 % ni tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 2.5% ga kamayganligini ko'rish mumkin. 2018-yil yakunlariga ko'ra esa YAIM 105,1% tashkil etgan holda, o'sish foizi 2017-yilga nisbatan 0,2% ga kamaygan (1-ilova)¹. Ushbu pasayish tendensiyasini eng avvalo, korxonalarga ta'sir etadigan turli risklar bilan izohlash mumkin. Risklar, faoliyat yuritadigan har bir korxona borki, chetlab o'tmaydi, u mavjud va u korxonalarni foyda yoki zarar ko'rishiga (asosan zarar ko'rinishida) sabab bo'ladi. Korxona va tashkilotlar asosan risk sababli zarar ko'radi, mahsulot ishlab chiqarish kamaytiradi, inqirozga yuz tutadi. Lekin qancha korxona inqirozga uchrashiga qaramasdan, yanada ko'proq korxonalar tashkil topishi iqtisodiyotdagi rivojlanishni ta'minlaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tashkiliy islohotlarning aniq dalili sifatida yengil sanoat sohasidagi keskin rivojlanishni ko'rsatishimiz mumkin.

2018-yilda "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi 1512 ta korxona

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi